

## TA'LIMDAGI TENG IMKONIYATLAR: INKLYUZIV YONDASHUV ASOSLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Pedagogika yo`nalishi talabasi*

***Musurmonova Gulshoda***

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Pedagogika yo`nalishi talabasi*

***Abduvaliyeva Marjona***

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'limdagi teng imkoniyatlarni ta'minlashda inklyuziv yondashuvning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritiladi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati, uning asosiy tamoyillari tenglik, adolat, ijtimoiy integratsiya va individuallashtirilgan yondashuv masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonida zamonaviy metod texnologiyalardan foydalanish zarurati asoslab beriladi.

***Kalit so'zlari:*** *inklyuziv ta'lim, teng imkoniyatlar, ta'lim tizimi, ijtimoiy integratsiya, individuallashtirilgan yondashuv, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, pedagogik kompetensiya, ta'lim sifati, innovatsion metodlar, ta'lim muhitini moslashtirish, ijtimoiy adolat*

Inklyuziv ta'lim - barcha bolalar, jumladan nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni umumiy ta'lim tizimiga jalb etib, ularga teng sharoitda sifatli ta'lim berishni ta'minlaydigan yondashvidir. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" sig'a qo'shilgan. Unga ko'ra:

Nogironligi bo'lgan shaxslar inklyuziv ta'lim olish huquqiga ega;

Davlat diskriminatsiyani bartaraf etish kerak;

Barcha darajadagi ta'lim tizimi inklyuziv bo'lishi lozim.

Ta'lim to'g'risidagi qonun .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 4860.

"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida". Inklyuziv ta'limda bolalarda bag'rikenglik va hamkorlik rivojlanadi, ijtimoiy tenglik mustahkamlanadi, har bir bola o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qiladi, jamiyatda ijtimoiy ajratish kamayadi.

Asosiy tamoyillari:

Tenglik va adolat

Har bir bolaning qadr-qimmatini

Individual yondashuv

Ijtimoiy integratsiya

Moslashuvchan ta'lim muhiti.

Asosiy tamoyillaridan teng imkoniyatlar- har bir inson (yosh,jins,sog'lig'i,ijtimoiy holati yoki boshqa faqrlaridan qat'iy nazar ) bir xil huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash tamoyilidir.Teng imkoniyatlar aynan inklyuziv ta'lim orqali amalga oshadi.Maxsus ehtiyojli bolalarga oddiy makablarda o'qish,ular uchun qo'shimcha yordam ( logoped,psixolog,maxsus dasturlar ) yaratildi .Bundan tashqari yana nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun pandus va maxsus sinflarni tashkil etdi. Ko'zi ojiz bolalar uchun Brayl alifbosida darsliklar chop etildi.Eshitishida muammosi bor bolalar uchun imo-ishora tarjimoni ,iqtidorli bolalar uchun alohida rivojlantiruvchi dasturlar yaratildi.

Inklyuzivda ta'lim oluvchilar uchun ijtimoiy integratsiya asosida teng imkoniyatlar yaratildi ,ularni jamiyatga moslashtirish orqali insonlarni jamiyatdan ajratmagan holda ta'lim berish.O'zbekistonda ijtimoiy integratsiya asosida nogironligi bor shaxslarni qo'llab-quvvatlash dasturlari bo'lib inklyuziv ta'lim rivojlantirish bilan birga ijtimoiy himoya tizimi kuchaytirilmoqda .Ijtimoiy integratsiya -bu insonlarni birlashtiruvchi kuch.U jamiyatni yanada barqaror ,adolatli va insonparvar qiladi .Har bir inson jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi kerak -aynan shu integratsiyaning asosiy maqsadlaridir.Individuallashtirilgan yondashuv- bu har bir shaxsning individual xususiyatlari ,qobiliyatlari ,ehtiyoblari va qiziqishlarini hisobga olib ishlash usulidir.

Maxsus ehtijoli o'quvchilar - bu jismoniy ,aqliy,sensor ,nutqiy yoki psixologik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ,ta'lim jarayonida qo'shimcha yordam va moslashtirilgan sharoitlar talab qiladigan o'quvchilardir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra ,dunyo aholisining taxminan 15% qisman nogironlik bilan yashaydi. UNESCO hisobotiga ko'ra ,maxsus ehtiyojli bolaning ko'pchiligi sifatli ta'limdan to'liq foydalana olmagani qayd etilgan.UNICEF ma'lumotlariga ko'ra ,nogironligi bor bolalar maktabga bormaslik ehtimoli boshqa bolalarga qaraganda 2-3 baravar yuqori.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilar quyidagi toifaga bo'linadi:

ko'rishda nuqsoni borlar,

Eshitishda muammo bo'lganlar,

Aqliy rivojlanishda orqada qolish (daun sindromi),

Nutqida nuqsoni bo'lganlar,

Jismoniy nogironlik,

Autizm spektr buzilishlari.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlashda IEP,moslashtirilgan darslik va metodlar,maxsus pedagog va psixolog yordami kerak bo'ladi va inklyuziv sinfni yaratishdan iboratdir.Inklyuziv ta'lida dars berayotgan o'qituvchilar faqat bilim berish

emas,balki o'quvchini tushunish ,rivojlantirish va tarbiyalash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi.Asosiy pedagogik kompetnensiyalar sifatida biz quyidagilarni belgilaymiz:

Kasbiy kompetensiya; pedagogik-psixologik kompetensiya;kommunikativlik kompetensiya ;metodik kompetensiya;axborot-kommunikatsion kompetensiya; ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarga ajratamiz.

Inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim sifat ko'rsatkichlari quyidagilarga asosida amalga oshiriladi.O'zlashtirish ,ishtirok,ijtimoiy integratsiya,moslashtirilgan o'quv dasturi,pedagogik kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.Inklyuziv ta'limda muhitni moslashtirish -bu ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri.To'g'ri tashkil etilgan muhit orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respyblikasi " Ta'lim to'g'risidagi " qonun.
2. Abduqodirova .A. Pedagogik texnologiyalar.
3. Egamberdiyeva .N.Ijtimoiy pedagogik asoslar .
4. Sharipov.Sh. Zamonaviy pedagogika.
5. Arxiv.uz.
6. Kiberleninka.
7. WHO.